

SHAXS IJTIMOYILASHUVIDA OILANING ROLI

Sangirova Nilufar-Jizzax davlat pedagogika universiteti Umumiy psixologiya kafedrasida o'qituvchisi

Sanaqulova Mohichexra- Jizzax davlat pedagogika universiteti, Psixologiya (amaliy psixologiya) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs ijtimoiy taraqqiyotida oila muhitining o'zini xususidagi fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: oila, ijtimoiy muhit, ijtimoiylashuv, ijtimoiy tarbiya.

Ijtimoiy tarbiyaning dastlabki o'chog'i oila bo'lib, aynan ota va ona dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni bola ongiga singdiruvchi, uning irodasini charhlovchi insonlardir. Oilaviy munosabatlar bolani nafaqat shaxs sifatida o'zligini anglash, balki o'zini u yoki bu jins vakili sifatida idrok etish va shaxsiy fazilatlarini takomillashtirishga ham yordam beradi. Olimlar tomonidan olib borilgan tajribalar shuni isbotladiki, oilaning to'liq bo'lishi, ya'ni, unda ham ota, ham onaning tinchlik-totuvlikda yashashlari va unda normal insoniy munosabatlar, sog'lom ma'naviy muhitning mavjudligi bolaning har tomonlama yaxshi rivojlanishi, sog'lom, aqlli, kuchli iroda sohibi bo'lib etishiga imkon beradi. Bolaga ham otaning ham onaning bo'lishining zarurati shu bilan izohlanadiki, masalan, qiz bola onasi va uning oilada o'zini tutishiga qarab, o'zini ayollar jinsiga taalluqli ekanligini anglashdan tashqari, kelajakda qanday ona bo'lishini tasavvur qilsa, otasiga, uning onasiga bo'lgan munosabatiga qarab, o'zini kelajakda oila qurganda qanday oila sohibasi bo'lishi lozimligini anglab boradi. Xuddi shunday, o'g'il bola onasining fazilatlari, oiladagi tutimi va otasiga munosabatini idrok qilib borar ekan, kelajakda qanday qiz bilan turmush qurish mumkinligi, tanlaydigan qizi qanday sifatlar sohibasi bo'lishi lozimligini bilib borsa, otasi va uning oilada mavqeiga qarab, o'zini erkak sifatida kelajakda tasavvur qilish bilan birgalikda turmush o'rtog'iga qanday munosabatda bo'lish lozimligi to'g'risida bilim va tasavvurlarini orttirib boradi. Bu psixologik qonuniyat bo'lib, shaxsning oiladagi shaxsiy va jinsiy sotsializatsiyasining etakchi tamoyili hisoblanadi. Shu bois ham bolaning tom ma'noda yaxshi tarbiya olib, jamiyatda va oilaviy munosabatlarda munosib mavqega ega bo'lishi uchun oila muhiti sog'lom, barqaror, er va xotin bir-birlariga g'amxo'r, mehrlil va sadoqatli bo'lishlari o'ta muhimdir. Demak, oila bolaning ijtimoiy munosabatlarga tayyor bo'lishida muhim ahamiyat kasb etgan pedagogik muhitdir. Shu bois ham olimlar oilaning eng muhim va dastlabki vazifalaridan ham birini tarbiyalovchi funktsiya ekanligini doimo e'tirof etadilar.

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, bolaning ijtimoiylashuvi jarayonida maktabgacha tarbiya maskanlari, maktabning roli va ahamiyati ham bor. Lekin ulardagi ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi eng avvalo, oilaviy tarbiyaga

bog'liq ekanligini, "Qush uyasida ko'rganini qiladi" maqolining mohiyatini hamma biladi. Maxsus tarbiya maskanlari oldida oiladagi ijtimoiylashuvning afzalligi shundaki, oiladagi barcha o'zaro munosabatlar tabiiy muhitda, inosiy munosabatlar tamoyiliga asoslanib amalga oshiriladi. Qolaversa, o'rtacha O'zbekistondagi oilalarda 3-4 nafardan farzand bo'lsa, ikki ota va ona uchun ularga etarli e'tibor berish uchun imkoniyat kengroq, maktab yoki bog'chada esa guruhlardagi bolalar soni ko'p va ta'lim-tarbiya jarayoni maxsus dasturlar va aniq rejim asosida amalga oshirilgani uchun bolalarning bir tekisda rivojlanishi va kamol topishi uchun etarli bo'lmaydi. Demak, oilaviy sotsializatsiyaning samaradorligi oila bilan boshqa tarbiya maskanlari o'rtasida o'rnatilgan hamkorlikdagi uyg'unlikka bevosita bog'liq.

Bolaning ta'lim muhitiga kirib borishi va bu jarayonga moslashishi ko'pincha bir tekis kechmaydi. Bunga sabab maktabga tayyorgarlikning quyidagi asosiy talablari:

1. Psixofiziologik; 2. O'quv faoliyati va uning tarkibiy qismi:

- ✓ sensomotor sohaning shakllanganligi;
- ✓ kongnitiv jarayonlarning shakllanganligi;
- ✓ bilish motivatsiyasining mavjudligi.

3. O'z faoliyatini boshqara olish tizimining shakllanganligi; 4. Ijtimoiy, ham tengdoshlari, ham kattalar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish talabi va qobiliyati sifatida; 5. Ijtimoiylashuv, bola shaxsi imkoniyatlarining jamiyat talablariga mos kelishi va qabul qilishi. Shu o'rinda ijtimoiylashuvni jamiyatning talablari va bola imkoniyatlarining tutashuvi deb qarash mumkin. Ijtimoiy talablar shaxsning xulq-atvorini belgilovchi mutloq omil hisoblanadi. Ijtimoiy tarbiyaning asl ma'nosi ham, vazifasi ham boladagi ijtimoiy faollikni oshirish orqali, undagi ijobiy fazilatlarni kamol toptirishdir. Odatda oilada ijtimoiy faollikni oshirish bola irodasini chiniqtirish orqali amalga oshiriladi. Chunki ko'pincha ota-onalar bolalarining aqlli, farosatli bo'lib etishlariga e'tibor berib, uning ruhiyatini hamda jismoniy quvaatini oshirishga, irodasini mustahkamlashga bee'tibor qoladilar. Buning oqibatida bola turmush so'qmoqlarida tez qoqiladigan, turli ijtimoiy vaziyatlarda qiyinchiliklarni yenga olmaydigan, ruhiyati mo'rt bo'lib katta bo'ladi. Shuning uchun ham oilaviy ijtimoiylashuvda bolaning ijtimoiy bilimdonligi, ijtimoiy ko'nikmalar va ularni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarga alohida urg'u beriladi.

Mutaxassislar oilaviy sotsializatsiyaning bosqichlari, funksiyalarini tafovutlash bilan birgalikda uning har birida o'ziga xos ijtimoiylashuv usullari ustivor bo'lishini ham ta'kidlaydilar. Masalan, rus sotsiologi N. Andreenkova ijtimoiylashuv jarayonini ikki katta bosqichda tasavvur qiladi. Uning **birinchi bosqichi** – individning ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanishini ta'minlovchi hayot bo'lagini o'z ichiga olib, u inson hayotining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadi. Bu davrda asosan bolaning:

- dastlabki ilk sotsializatsiyasi (bolalik davri);
- normativ xulqning marginal jihatlarini o'zlashtirish davri (o'smirlik

davriga to'g'ri keladi);

- o'spirinlikdan balog'at yoshiga o'tish davrini o'z ichiga olgan ijtimoiylashuv oqibatlari yaxlit namoyon bo'ladigan bosqich.

Ikkinchi bosqich – shakllanib bo'lgan shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishi davrlarini o'z ichiga olgan hayot bosqichi. Bunda shaxs dastlab mehnatga yaroqli jamiyat a'zosi sifatida, so'ngra naqaqa yoshiga etgan inson siftida o'z o'rniga ega bo'ladi.

Ko'plab olimlar va oila masalalari bo'yicha mutaxassislarni xavotirga solgan jihat shuki, zamonaviy oila o'zining bola shaxsini ijtimoiylashtiruvchi vazifasini yaxshi va to'liq ado etmayapti. A.Antonovning ta'kidlashicha, zamonaviy oila oilaviy turmush tarzini shakllantira olmayotganligi sababli ham o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.

Haqiqatdan ham bugungi zamonaviy oilada tarbiyalanayotgan yosh avlod oilada olgan dastlabki ijtimoiy tajribasini ta'lim muassasalarida qay darajada namoyon qila olayapti? Ijtimoiylashuv muassasalarida bu qanday ko'rinish kasb etmoqda?. Bu kabi savollarga javob topish uchun ma'lum bir diagnostik tadqiqotni amalga oshirish talab etiladi. Biz Jizzax shaxridagi 3- va 6- sonli umumta'lim maktablarining 1- sinf jami 60 nafar o'quvchilarida Rene Jilyaning bolalar proektiv metodikasini sinab ma'lum bir natijalar oldik. Rene Jilyaning mazkur metodikasi bolaning shaxslararo munosabati sohasini va uning oila ichidagi o'zaro munosabatlarni idrok qilishini tekshirish uchun mo'ljallangan. Metodika bolaning ijtimoiy moslashganligini, hamda uning atrofdagilar bilan o'zaro munosabatini o'rganishga asoslanadi. Metodikaning maqsadi bolaning ijtimoiy moslashuvi xususiyatlarini uning atrofdagilar bilan o'zaro munosabati va umumiy bilish faolligini o'rganishdan iborat.

Metodika quyidagi shkalalar bilan tavsiflanadi:

- 1.Onaga bo'lgan munosabat;
- 2.Otaga bo'lgan munosabat;
- 3.Ota va onaga, oilaviy juftga kabi bo'lgan munosabat;
- 4.Aka-uka va opa-singillariga bo'lgan munosabat;
5. Buvi va buvaga bo'lgan munosabat;
- 6.Do'stga bo'lgan munosabat;
7. O'qituvchiga munosabat;
- 8.Bilimga bo'lgan qiziqish;
9. Xukmronlikka bo'lgan intilish;
- 10.Muloqatchanlik;
- 11.O'zini chetga tortadigan;
- 12.Adekvatlik;

Mazkur shkalalarda ijtimoiylashuv harakterini ochib beruvchi shkalalari natijalari aynan ma'lum bir adekvat darajani ochib berdi. Bunga ko'ra sinaluvchilarning 23.4% da ijtimoiylashuv jarayoni bir muncha qiyinchilikka va to'siqlarga ega. Bu jihat nafaqat oilaviy muhit bilan balki, ota-onaning o'z farzandiga kam e'tibor qaratayotgani ularning kundalik yumushlarga, ishga, moddiylikka haddan ziyod o'ralashib qolganligi bilan ham harakterlanadi. Metodika talabi bo'yicha bola bilan qurilgan qo'shimcha suhbat ham bunga oydinlik kititdi. Sinaluvchilarning deyarli barchasi to'liq oila vakillari hisoblanishadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, A.Antonov ta'kidlaganidek, zamonaviy oila o'zining bola tarbiyasi borasidagi ijtimoiy bilimdonligini namoyon eta olmayapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bola taraqqiyotini psixologik tashxis qilish. Mualliflar: R.I.Sunnatova , G.Irgasheva, S.X.Tadjiyeva. Toshkent -2008 yil, 156 bet
2. Ijtimoiy psixologiya (o'quv qo'llanma). F.A.Akramova. – T., 2007. – 166 b.
3. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // Muallif: V.M.Karimova. – T., 2007. – 316 b.
4. Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
5. Usmonova, M. (2023). OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA-ONA MUNOSABATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
6. Usmonova, M. (2023). O'SMIRLARNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI HAQIDA. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3).
7. Usmonova, M. (2023). MAKTABDAN TASHQARI TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH TALABLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 3(3), 152-155.
8. Shakarboyeva, S. (2022). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ЖИХАТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(2).
9. Shakarboyeva, S. (2021). БЎЛГУСИ ПЕДАГОГЛАРДА ЎЗ УСТИДА ИШЛАШ ФАОЛИЯТИНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (1).
10. Шакарбоева, Ш. А. (2021). САМОРАЗВИТИЕ В ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КАК ПРЕДМЕТ СОЦИАЛЬНОЙ ПСИХОЛОГИИ. In *Стратегия научно-технологического развития-2021* (pp. 39-40).
11. Шакарбоева, Ш. А. ПЕДАГОГИКА & ПСИХОЛОГИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА. *ПЕДАГОГИКА*, (1), 61-64.
16. Shakarboyeva, & O'ktamova , O. (2024). TARBIYASI OG'IR O'SMIRLARNI IJTIMOIIYLASHTIRISHDA OILA, MAHALLA, TA'LIM MUASSASASI HAMKORLIKLAGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 139-147. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9555>
17. Shakarboyeva, & Qayumov, A. (2024). AUTIZMLI BOLALARNI RIVOJLANTIRISHDA ART TERAPIYA USULLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном*

образовании, 4(1), 148-154. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9556>

18.Shakarboyeva, & Жасурова, Н. (2024). ЎСМИРЛАРДА ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ЎРГАТИШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8831>

19.Shakarboyeva. (2024). O‘SMIRLIK DAVRIDAGI SUITSIDNING KELIB CHIQISH SABABLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8726>

20.Shakarboyeva, & Худойкулова , Г. (2024). БОШЛАНГИЧ СИНФЛАРДА ЧЕТ ТИЛИ ЎЗЛАШТИРИШ ВА ЎРГАНИШНИНГ ЁШГА ОИД ХУСУСИЯТЛАРИ. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, (1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8832>

21.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>

22.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 119-125. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9552>

23.Munira Usmonova, OILAVIY NIZOLARDA FARZAND VA OTA - ONA MUNOSABATLARI , *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании: № I (2023): «СОВРЕМЕННАЯ СОЦИАЛЬНАЯ ПСИХОЛОГИЯ: ТРАДИЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ» I - МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ*

24.Fayziyeva, nodira. (2024). YOSH OILALARNING IJTIMOY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI. *Журнал Педагогикаси ва психологияси в современном образовании*, 4(1), 85-90. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9547>

25.Собировна, ФН (2024). Психологические особенности учащихся начальных классов. *Wire Insights: Журнал Innovation Insights*, 2 (2), 16–18.

26.Файзиева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).

27.Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.

28.Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.